

Analysis of pronunciation among speakers of the Andijan dialect

Onorkhon SATIMBOYEVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 April 2025
Available online
25 May 2025

Keywords:

vowel,
consonant,
dialect,
pronunciation,
incomplete verb.

ABSTRACT

This article studies the specific features of the pronunciation of representatives of the Andijan dialect. The pronunciation of vowels, consonants, and the placement of stress on syllables are demonstrated with examples. The speech of representatives of different populations living in the districts of Andijan region was recorded in audio form, and their differences and similarities are described.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5/S-pp309-314>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Andijon shevasi vakillari talaffuzi yuzasidan tahlil

Kalit so'zlar:

unli,
undosh,
sheva,
talaffuz,
to'liqsiz fe'l.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Andijon shevasi vakillari talaffuzining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Unlilar, undoshlar talaffuzi, urg'uning bo'g'inlarga qo'yilish holatlari misollar bilan isbotlangan. Andijon viloyati tumanlarida istiqomat qiluvchi turli aholi vakillari nutqi audio holatda yozib olinib, ularning farqli va o'xshash holatlari bayon etilgan.

Анализ произношения представителей андижанского диалекта

Ключевые слова:

гласный,
согласный,
диалект,
произношение,
неполный глагол.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются особенности произношения представителей андижанского диалекта. На примерах демонстрируется произношение гласных, согласных, постановка ударения в слогах. В аудиозаписи записана речь представителей разных слоев населения, проживающих в районах Андижанской области, описаны их различия и сходства.

¹ Assistant Teacher, University of Economics and Pedagogy, Independent Researcher, Uzbekistan State World Languages University. E-mail: anorasatimboyeva@gmail.com

O'zbek tili juda ham boy til, u nafaqat badiiy so'zlashuv uslubida go'zal, balki yangi kirib kelayotgan so'zlar bilan ham uning salmoqdorligi, xilma-xil bo'yoqdorligi oshib bormoqda. Bu borada milly qatlam xususan shevalar alohida ahamiyatga ega. Qadimdan o'zbek xalqi madaniyat hamda ma'rifat rivojlangan xalq bo'lgan, qo'shni xalqlar bilan qalin do'stlik aloqasini o'rnatgan. Xalqlar do'stligi ortidan, tillar qorishuvi, g'oyalar to'qnashuvlari, yangi shevalarni paydo bo'lish holatlari birga kechgan, hamohanglikda davom etgan. O'zbek shevalarining Qipchoq lahjasida so'zlashuvchilar O'zbekiston hududining salmoqli qismiga to'g'ri keladi. Shu kabi Andijonning ham aksariyat aholisi qipchoq lahjasida so'zlashadi. Bunga sabab Andijon viloyatining Qirg'iziston respublikasi bilan chegaradoshligi bilan ham belgilanadi. Tarixda ham bu hududda qipchoq lahjasi vakillari ko'pchilikni tashkil etgan. Andijonning janubiy-sharqiy hududiga kiruvchi Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Jalaquduq tumanlarida qipchoq lahjasida so'zlashuvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi va bu hududda lab uyg'unligi ustunlik qiladi, ushbu xususiyat bilan u boshqa qipchoq lahjasi vakillari shevalaridan farq qiladi. Ushbu shevada -lak ya'ni inkor ma'nosini beruvchi qo'shimcha foydalanishi alohida ahamiyatga ega, ya'ni *-boralak (bormasligi mumkin)*. Bu qadimda asosan Oltoy hamda Qirg'iz shevalarida tarqalgan holat bo'lgan. Hozirga qadar Qo'rg'ontepa (Dardoq, Qo'rg'onchek, Qizilto'qay, Dehqonchek, Yangiyo'l), Jalaquduq (Abdullabiy, Ilich, Oxunboboyev, Marks) kabi tumanlarda hali ham ushbu holat saqlangan.

Andijon shevasi vakillarining talaffuzi adabiy til me'yorlariga juda mos va monand hisoblanadi. Biroq unlilar soni jihatdan Namangan, Farg'ona, Marg'ilon hamda Toshkent shevalaridan farq qiladi. Ya'ni unlilar soni boshqa shevalardan ko'ra ko'proq. Ibrohim Sobirovning yozishicha Andijon shevasida unli fonemalarning tilning gorizontaal harakatiga bilan belgilanuvchi kontrast juftliklar mavjud va shu sababli singarmonizm qonuniyati ma'lum darajada saqlangan [2].

Unlilardan *I* unlisiga to'xtaladigan bo'lsak, old qator (platal) lablanmagan tor unli bo'lib, q, g', x undoshi bo'lmagan hamma bo'g'inlarda kelaveradi. Orqa qatori *i* tovushidan talaffuz jihatdan farq qiladi, shuningdek ma'no ayrish jihatdan ham farq qiladi. Ayrim undoshlarning so'zlardagi holatiga ko'ra boshqacharoq talaffuz qilinishi mumkin. Shuning uchun ba'zi holatlarda uzun, ayrim holatlarda qisqa talaffuz qilinishi mumkin.

Shuningdek Andijon atrofidagi *Saroy shevasi* vakillari adabiy tilda *ikki* deb talaffuz qilinuvchi so'zni *ekki* singari talaffuz etish holatlari uchraydi. Yana qo'shma son *o'n ikkining* talaffuzida ham *ikki* so'z bir-biriga qo'shilib *o'nek* kabi talaffuz qilinish holatlari uchraydi. Bu holat nafaqat Andijon balki Samarqand, Jizzax shevalarida ham kuzatilishi mumkin. Adabiy talaffuzda ehtimol so'zi *I* tovushiga urg'u berilgan holda talaffuz etilishi kerak ammo Andijon shevasida *I* tovushi yarim holda talaffuz qilinadi. Rus tilidan o'zlashgan so'zlardagi *i* unlisi talaffuzi ayrim urg'uli bo'g'inlarda tushib qolsa yoki urg'usiz aytilsa (командир-ruscha komandr-Andijon shevasida), ayrim so'zlarda esa me'yoridan ortiq cho'zilish bilan talaffuz qilinadi, masalan *kino* so'zida.

Ana endi *e* unlisi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu unli Andijon shevasida yuqori-o'rta ko'tarilishdagi o'rta keng unli hisoblanadi [2]. Andijon shevasi talaffuzini tadqiq etgan Stefan Vurm andijonliklar *e* tovushini *i* ga monand talaffuz qiladi deb katta xatoga yo'l qo'yg'an, yani *men, sen* olmoshlari *min, sin* kabi talaffuz qilinadi degan fikrni ilgari surgan ammo bu haqiqatga xilofdir. Bu borada professor A.K. Borovkov hamda V.V. Reshetovlar *e* unlisi rus tilidagi *э* tovushiga o'xshab talaffuz qilinadi deganlar, bu fikrda esa asos bor. Shuningdek eski andijon shevasi vakillari ayrim rus tilidan kirib

kelgan soʻzlar talaffuzida qoʻllangan *e* tovushini baʼzida almashtirib baʼzan tushirib talaffuz qilgan, masalan *тэлэфон* (rus adabiy shakli) *telpon* (Andijon shevasida), *telgrop* (rus adabiy shakli телеграф), *telgrom* (rus adabiy shakli телеграмма).

U unli tovushi juda ham tor, til oldi lablangan tovushlar qatoriga kiradi. Bunda til va labning ishtiroki yuqori boʻlib ayniqsa *ch*, *sh*, kabi tovushlar bilan yonma yon kelganda bu holat yanada kuchliroq seziladi. Andijon shevasi vakillarining talaffuzida *u* unlisi nisbatan biroz farq bilan talaffuz qilinadi. Yaʼni chuqur til orqa *q*, *gʻ*, *x* tovushlari mavjud boʻlgan holatlarda talaffuz qilingandagi holat bilan til oʻrta *g*, *k* tovushlari bilan talaffuz qilinganda butkul boshqacha talaffuz qilinadi (*qul-kul*, *gʻul-gul*, *gʻur-gur*, *xur-hur*).

O unli tovushi orqa qator, lablanmagan, quyi koʻtarilishdagi keng unli hisoblanadi. *O* ning talaffuzi ayrim soʻzlarda *a* ga almashinib talaffuz qilinadi. Masalan *oyoq* (*ayaq*), *oyi* (*aya*), *oynak* (*aynak*), *inoq* (*inaq*). Shuningdek Andijon shevasida oxiri ochiq boʻgʻin boʻlgan feʼllarga oxiriga *q* (chuqur til orqa) tovushini qoʻshib feʼl yasalganda, ikkinchi boʻgʻindagi *o* -*a* ga oʻzgarib talaffuz qilinadi, masalan *taroq* (*taraq*), *boʻyoq* (*boʻyaq*), *tarqoq* (*tarqaq*). Shuningdek ayrim shevalardan farqli oʻlaroq *a* unlisi *o* kabi talaffuz etilishi koʻproq uchraydigan holat hisoblanadi. Yaʼni *adash* (*odash*), *aldash* (*oldash*), *aldamchi* (*oldamchi*), *almash* (*olmash*), *arazlash* (*orozlash*), *atoqli* (*otoqli*), *palapartish* (*polopartish*).

Shuningdek tilshunoslikda choʻziq unli tushunchasi ham mavjud, yaʼni ayrim unlilarning oʻz holicha va yana choʻzilbroq talaffuz qilish holatlari ham uchraydi buning natijasida choʻziq unlilar paydo boʻladi. Masalan *teri* (hayvon terisi maʼnosida choʻziladi), *ter* (feʼl, ish-harakat maʼnosida kelganda) choʻziq talaffuz qilinmaydi. Turkiy tillarda choʻziq unlining mavjud yoki mavjud emasligi nuqtai nazaridan turli qarashlar mavjud. Bunda ayrim tilshunos olimlar oʻzbek tilining oʻzida choʻziq unli mavjud emasligi, chetdan kirib kelgan soʻzlarda esa ayrim tovushni qoʻshib talaffuz qilingani sabab, uzun va qisqa unlilar mavjud ekanligi haqidagi fikrlarni ilgari surganligiga guvohi boʻlamiz.

K.K. Yudaxin, F.A. Abdullayevlar turkiy tilarda tabiiy choʻziq unli bor ekanligini taʼkidlasalar, M. Rysanye turkiy tillardagi unlilar choʻziqligi bu soʻzni chetdan kirib kelganini anglatishini aytib oʻtgan. Oʻzbek tilining Xorazm shevasida deyarli har bir unlining choʻziq variant bor.

Andijon shevasidagi *e* unlisi ham ayrim oʻrinlarda choʻziq holda talaffuz qilinadi. Asosan takror kelgan soʻzlarda choʻzib talaffuz qilinadi. Masalan *ne*: -*ne*: *kishilar oʻtib ketti*, *yonida xe*: *miriyam yoʻq*. Shuningdek *u* unlisi ham choʻziq talaffuz qilinadi, qachonki qoʻshma feʼllar birinchisi *oʻqi* va *bermoq* feʼli bilan biriksa nutq jarayonini yengillatish maqsadida choʻziq unli hosil boʻladi, masalan: *oʻqib beradi*- *oʻqu:radi*.

Choʻziq *o* tovushi oʻzidan keyin kelgan titroq *r* tovushining tushib qolishi sababli Andijon shevasi vakillari tomonidan choʻzib talaffuz qilinadi, masalan: *bo:medi* (*bormedi*), *bo:mesan* (*bormesan*) kabi. Birinchi komponenti *a*, *b*, *ib* komponentlari bilan tugagan ravishdosh, ikkinchi qismi *ber*, *ol* kabi soʻzlar bilan tugagan holatlarda *o* tovushi choʻziq talaffuz qilinadi, masala: *keto:rdi*, *kelo:rdi* kabi (*ketaverdi*, *kelaverdi*). Qoʻshma feʼllarning yordamchi feʼl qismi *ol* soʻzi bilan birikkan holatlarda *a* *o* tovushiga oʻzgarib choʻziq talaffuz qilinadi, masalan: *keta oldi* – *keto:ldi*, *bora olaman* – *boro:laman*. Shuningdek *o* choʻziq talaffuz qilinishi holatlari gapga his-hayajon qoʻshilgan vaqtlarda ham kelishi mumkin.

Undoshlarga toʻxtalsak shevadagi konsonantizm adabiy til meʼyorlari bilan bir xil faqat ayrim tafovutlar bilan farqlanishi mumkin. Andijon shevasi singarmonizm holati koʻp uchragani sababli *b* tovushining baʼzida qattiq, baʼzida yumshoq talaffuz qilish

holatlari uchraydi. Ayrim holatlarda *b* tovushi burun tovushi *m* ga almashinib qo'llaniladi: *burun-murun*, *bunda-munda*, *buni-muni* kabi. *B* tovushi *v* lashish holatlari ham uchraydi, ya'ni *haybat-hayvat*. Ayrim Andijon shevalarida *e* tovushini *o* kabi talaffuz qilish holatlari ham uchraydi. Masalan: degan edim (adabiy shakl) – do: dim (Andijon shevasi). Andijon shevasida *p* ko'pincha *v* lashish holatlari ham uchraydi. Masalan: topib oldi (adabiy shakl) – tovvoldi (Andijon shevasi), *chopib oldi* (adabiy shakl) -*chovvoldi*(Andijon shevasi).

Andijon shevasi vakillarining talaffuziga zamonaviy chet tilidan kirib kelgan so'zlarning ham ta'siri salmoqli bo'lib, buni natijasida eski Andijon shevasi bilan hozirgi Andijon shevalarining ham katta farqi bor. Xususan Baliqchi tumanida istiqomat qiluvchi sheva vakillarining talaffuzidagi *o* tovushli so'zlarning *a* ga monand talaffuz qilish holatlari ko'p uchraydi. Masalan: *olaqanot* (adabiy shakl), *olaqanat* (Baliqchi tuman shevasi), *shox*(adabiy shakl), *shax* (Baliqchi tuman shevasi), *daryo* (adabiy shakl), *darya* (Baliqchi tuman shevasi). Urg'u tushmagan *o'sha* so'zidagi *a* tovushi urg'u tushmaganini hisobiga *i* tovushiga monand qilib talaffuz qilinadi, *o'sha* (adabiy shakl), *o'shi* (Baliqchi tuman shevasi). Shuningdek ikkinchi qismi *qolmoq* so'zidan iborat bo'lgan ko'makchili fe'llar ham qo'shib talaffuz qilish holatlari uchraydi (kelib qolib (adabiy variant), keppolib (Andijon shevasi), *olib qolib* (adabiy variant), *oppolib* (Andijon variant). Ikkinchi bo'g'indagi *l* tovushi yarim talaffuz qilinadi, masalan: *bering* (adabiy shakl), *bern* (Baliqchi tuman shevasi). Buloqboshi tuman shevalarida *e* tovushini talaffuzda tushirib qoldirish holatlari ham uchraydi, masalan: *degan* (adabiy shevada), *dgan* (Buloqboshi shevasi). Shuningdek ayrim tovushlar so'zlar qo'shib talaffuz qilganda ham *e* tovushi ko'proq tushib qolish holatlari uchraydi, masalan: *o'sha inson men edim* (adabiy shakl), *o'sha inson menidim* (Buloqboshi shevasi). *A* unli tovushining *e* unli tovushiga almashtirib talaffuz qilish holatlari ham uchraydi, masalan: *so'rab olmaydi* (adabiy shakl), *so'rab olmedi* (Buloqboshi tuman shevasi). Andijon shahri shevasida *b* tovushini *v* ga almashinib talaffuz qilish holatlari uchraydi, masalan: *olib olardim* (adabiy shakl), *olvoldim* (Andijon shevasi), *borib olardim* (adabiy shakl), *borvoldim* (Andijon shahar shevasi). Shuningdek Marhamat tumanida istiqomat qiluvchi insonlar shevasida *o'* tovushiga urg'u berish holati ko'p uchrab turadi. Shuningdek ushbu holat Buloqboshi tumani vakillari shevasi uchun ham tanish holat hisoblanadi. Masalan: *o'sha-o'sha*, *bo'ladi*, *olavermayman* (adabiy shakl), *olo':rmeman* (Marhamat shevasi). Shahrixon tumani vakillari shevasida ham urg'u tushmagan *a* tovushini tushirib qoldirish holatlari ko'p uchraydi. Masalan: *o'shanda* (adabiy shakl), *o'shinda* (Shahrixon shevasi). Shuningdek Shahrixon shevasi vakillari *o'* tovushiga urg'uning ko'proq qo'yilishi natijasida ayrim so'zlar qisqaradi va tovush tushish holatlari uchraydi: *bo'laveradi* (adabiy shakl), *bo'lo'radi* (Shahrixon shevasi).

Andijon viloyati Bo'ston tumani vakillari shevasida *l* tovushi tushish holatlari ham uchraydi, bu nafaqat Bo'ston, balki Buloqboshi, Marhamat, Asaka va yana shuningdek yana bir necha tumanlar shevalariga xos holat hisoblanadi, masalan: *bo'lgan* (adabiy shakl), *bo'gan* (Andijon shevasi). Oxiri ochiq bo'g'in bo'lgan so'zlarda *u* tovushi yarim *l* tovushiga o'zgarish holati uchraydi. Masalan: *bu yil* (adabiy shakl), *biyil* (Andijon shevasi).

Jalaquduq tumani vakillari shevalari talaffuzida *o* unli tovushining *a* unlisiga almashinib qo'llash holatlari uchraydi, masalan: *yo'qolib qolganman* (adabiy shakl), *yo'qalib qolganman* (Jalaquduq shevasi). Shuningdek birgina Jalqauduq emas balki Andijonning ko'plab hududlari vakillari shevasida chetdan kirib kelgan so'zlarni ayrim tovushlarini tushirib ketish holati uchraydi, masalan: *melitsiya* (adabiy shakl), *melisa* (Andijon shevasi). Jalaquduq tumani vakillari talaffuzidagi *a* tovushi *i* ga monand talaffuz

qilish holatlari uchraydi, masalan: *yashayman* (adabiy shakl), *yashiyman* (Jalaquduq shevasi), *ishlaydi* (adabiy shakl), *ishlidi* (Jalaquduq tumani), Shuningdek ushbu tuman shevasi vakillarida ko'makchi fe'lli birikmalarda ikki fe'lni qo'shib talaffuz qilish holatlari ko'p takrorlanadi: *bo'lib qolgan* (adabiy shakl), *bo'pqogan* (Andijon shevasi), *bilib olish* (adabiy shakl), *bilvolish* (Andijon shevasi). Baliqchi tumani vakillari shevasida bo'lmoq fe'li eng ko'p fonetik o'zgarishga uchrovchi fe'l hisoblanadi, masalan: *bo'lgan* (adabiy shakl), *bo'gan* (Baliqchi tuman shevasi). Baliqchilik insonlar *shu yerda* so'zini *shetta* deb talaffuz qilish holatlari ham uchraydi. Marhamat tumani vakillari shevasida barcha so'zlar og'iz apparatining oldi qismida talaffuz qilish holatlari aksariyat holatlarida uchraydi. Bunda ko'proq *o*, *u*, *i* tovushlariga urg'u tushadi va ko'p so'zlar shunga monand talaffuz qilinadi. Til oldi titroq *r* tovushi, til oldi *n* tovushiga monand almashinib qo'llash holatlari uchraydi, masalan: *biror joy* (adabiy shakl), *biron joy* (Marhamat tumani shevasi).

Baliqchi tumani vakillari talaffuzida aksariyat so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi *a* tovushini *e* ga almashinib qo'llash holatlari ko'p uchraydi. Masalan: *bag'ishlaydi* (adabiy til), *bag'ishledi* (Baliqchi tuman shevasi).

Andijon shevasi vakillarining talaffuzida so'zning oxirigi bo'g'iniga urg'u qo'yib talaffuz qilish holatlari ko'p uchraydi. Bunda asyniqsa Asaka tumani vakillari shevalarida ushbu holatni ko'p uchratish mumkin. Masalan: *o'ynar edim*, *qolar edim*, *borar edim* so'zlarini oxirgi bo'g'inlariga urg'u tushirib qo'yish holatlari ko'p uchraydi. Shuningdek Asaka tumani vakillari talaffuzida edi, emish, emas to'liqsiz fe'llarining o'zidan oldingi kelgan so'zlar bilan qo'shib talaffuz qilish holatlari ko'p uchraydi. Masalan: *ayamas edim* (adabiy shakl), *ayamasdim* (Asaka shevasi), *kerak emas* (adabiy shakl), *keremas* (Asaka shevasi). Asaka tumani shevasi vakillari talaffuzida ikkinchi bo'g'indagi *a* unli tovushini *e* ga monand almashinib talaffuz qilish holatlari uchraydi: *ayashmaydi* (adabiy til), *ayashmedi* (Asaka shevasi). Shuningdek adabiy shakldagi *keyin* so'zini *kegin* tarzida talaffuz qilish holatlari uchraydi. Nafaqat Asakaliklar shevasida balki butun Andijon shevasi vakillarida *mening* egalik olmoshining aytilishida oxirgi *ng* tovushi tushish holatlari uchraydi. Orzu, obro' so'zlarining ikkinchi bo'g'iniga *y* tovushini qo'shib talaffuz qilish holatlari ko'p uchraydi. Asakaliklar *o'qib turgan* yoki *o'qiyotgan* so'zini *o'qiyapturgan* kabi talaffuz qiladilar.

Xulosa o'rnida Andijonning ko'plab tumanlari vakillari talaffuzini taftish qilganimizda deyarli barcha tumanlar uchun umumiy jihat bu asosiy tovushlar og'izning oldi qismida talaffuz qilinadi. Shuningdek qo'shma fe'llar qo'shib talaffuz qilinishi natijasida tovush tushish holatlari ko'p bo'ladi. Deyarli barcha Andijon viloyati tumanlari shevalari vakillari nutqida urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anarbayeva Marifatxon Murodiljonovna. *Andijon Turk-Barloslari Shevasining O'ziga xos (fonetik, leksik va morfologik) xususiyatlari*. Miasto Przyszłości Kielce 2024 Impact Factor: 9.9 ISSN-L: 2544-980X.
2. Ibrohimov. S. *O'zbek tilining Andijon shevasi*. 14-bet. "Fan" nashriyoti. Toshkent 1967.
3. Jahongirova (Mahmudova) Diyoraxon Bahodirjon qizi. *Andijon viloyatidagi tojikqishloq shevsi bo'yicha ayrim mulohazalar*. Research focus | volume 2 | issue 5 | 2023 issn: 2181-3833 Research Bip (14) | Google Scholar | SJIF (5.708) | UIF (8.3), 53-67 B, 57-b.
4. Satimboyeva O.A. *Tilshunoslar tadqiqotlarida interferensiya nazariyasi, fonetik interferensiya*. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2/4 (123), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2025 y. – 439 b. – Bosma nashrning elektron varianti – <https://www.mamun.>

5. Satimboyeva Onorxon Anvarjon qizi. *The role of uzbek dialects on pronunciation of English language, problems and solutions*. American journal of multidisciplinary bulletin ISSN: 2996-511X (online) | ResearchBib (IF) = 9.512 IMPACT FACTOR Volume-1| Issue-2| 2024 Published: |25-08-2024|.

6. lex.uz.